

Azimova Guljamol

Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarda ingliz tili o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishda ertaklarning ahamiyati haqida muallifning fikr va mulohazalari bayon qilingan.*

Annotation: *This article describes the author’s views and opinions on the importance of fairy tales in shaping students’ interest in learning English.*

Аннотация: *В данной статье изложены взгляды и мнения автора о значении сказок в формировании интереса учащихся к изучению английского языка.*

Kalit so‘zlar: *ertak, Konte de fees, marchen, Andersen, Jakobs.*

Keywords: *fairy tale, Konte de fees, marchen, Andersen, Jakobs.*

Ключевые слова: *сказка, Конте де феес, мархен, Андерсен, Жакобс.*

Yevropada ertak janri muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ayniqsa, xalq orasidan ularni yig‘ib olish va yana xalqqa yetkazib berish yo‘lida bir qator ertakchilar fidoiylik ko‘rsatishgan, Xususan, aka-uka Grimmlar, Andersen, Sharl Pero, Josef Jakobslar shular jumlasidandir. Mazkur maqolamizda aynan ertak janrining yevropada to‘planishi va rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shgan yuqoridagi namoyondalar haqida fikr yuritamiz.

Ingliz tiliga “ertak” atamasining kirib kelishi fransuz yozuvchisi, baronessa Mari Katerina d’Alnoy nomi bilan bevosita bog‘liq. Bu atamaning o‘zi xonim d’Alnoyning “Konte de fees” asari tarjimasidan kelib chiqqan bo‘lib, uning to‘plamida bu so‘z birinchi marta 1697-yilda qo‘llanilgan. Adiba asarlarida ilk bora “Konte de fees”(inglizcha, “fairy tale-ertak”) so‘zini ishlatganidan so‘ng, yevropada ertak janriga bo‘lgan e‘tibor kuchaya bordi. Germaniyada ertak janri “marchen” ya‘ni “qisqa hikoya” deya atalgan. Ba‘zi folklorshunoslar “fairy tale” (ertak) so‘zining o‘rniga “marchen” yoki “wonder tale” atamalaridan foydalanib kelishadi.[1;39] O‘n to‘qqizinchi asr folklor uchun oltin asr edi. Butun dunyodagi folklorshunoslar og‘zaki manbalardan qadimiy ertaklarni to‘plashni va ularni yozishni boshladilar.

Aka-uka Grimmlar ertak yig‘ish jarayonida Kunstmärchen ya‘ni badiiy yoki adabiy ertak tushunchasini asos solishdi. Hans Kristian Andersen bu janrning eng mashhur namoyondalaridan biri hisoblanadi. Muallif "Mutlaq qalay askar" (1838) kabi original ertaklarni yozib olish yoki “Kichik suv parisi”(1837) kabi mashhur balladalar ertak janriga moslashtirish kabi yo‘llardan foydalangan.

Andersenning ilk ertaklari an‘anaviy xalq ertaklaridan olingan bo‘lsada, muallif ularga o‘z harakterini qo‘shish uchun so‘zlashuv uslubi, kinoya, oddiy havolalar, realism

kabi elementlarni qo‘shib chiqqan. “Qizil poyabzal” (1845) kabi ertaklardagi transformatsiyalar ma'naviy va metafizik tushuncha yaratilishiga imkon beradi.

O‘n to‘qqizinchi asrda butun Amerika va Evropada ko‘plab badiiy ertaklar yaratilgan. Ertak kitobxon uchun mashhur va ommabop janr edi. Shu bilan birga uning motivlari yozuvchilar kuzatilishi mumkin bo‘lgan dunyoni sharhlash va o‘zgartirish imkonini berardi. Qadimiy ertaklarni ijtimoiy nuqtai nazarni talqin qilsa, badiiy ertaklar badiiy yoki siyosiy maqsadni ko‘zlab yozilgan. Masalan, Vashington Irving (“Rip Van Vinkle”), Charlz Dikpens (“Rojdestvo qo‘shig‘i”), Nikolay Gogol, J. P. Xebel va Oskar Uayld (“Baxtli shahzoda”) larning badiiy ertaklari ilk to‘plamlarda mavjud bo‘lmagan, o‘z-o‘zini anglash darajasini taqdim etadi. Ikki hikoya, Gogolning “Burun” (1836) va Xebelning “Kutilmagan uchrashuv” (1811) yuqoridagi badiiy janrning namunasidir.[2]

Yevropada ertaklarni xalq orasidan to‘plab, sayqal berib yana xalqqa kitob holatida yetkazib berish yo‘lida ko‘plab folklorshunos olimlar jonbozlik ko‘rsatishgan. Xususan, aka-uka Grimmlar nomi bilan mashhur bo‘lgan Yakob (1785-1863) va Vilgelm (1786-1859) Grimmlar xalq og‘zaki ijodi namunalari va ertaklarni to‘plashgan. Bu jarayonda aka-ukalar turli usullardan foydalanishgan. Yakob ertaklarni asl holida qoldirish tarafdori bo‘lsada, ukasi Vilgelm ertaklar asosan bolalar uchun mo‘ljallanganligini hisobga olib, ularni soddalashtirish kerakligini ta’kidlagan.

Grimm ertaklari orasida “Oppog‘oy”, “Zolushka”, “Qor qiz”, “Gansning baxti”, “Quyvon va tipratikan”, “Botir tikuvchi”, “Bo‘ri va tulki”lar juda mashhur. 1812-yilda ular to‘plangan, o‘zgartirishlar kiritilgan ertaklarni “Kinder und Hausmarchen”(“Bolalar va oilaviy ertaklar”) nomi ostida nashr ettirishadi. Bu kitob birinchi jild bo‘lib, keyinchalik 1815-yilda ikkinchi jild ham chop ettiriladi. Yuqorida ko‘rsatilgan ikki jild 1822-yilda umumlashtirilib uchinchi jild yaratilgan. Grimmlaming uch jildlik kitoblarida ikki yuzdan ortiqroq ertaklar jamlangan bo‘lib, unda mualliflar ko‘proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan birga, qo‘rqoqlar ustidan kulish, dangasalik va yolg‘onchilikni qattiq qoralash birinchi o‘rinda turadi. Shunisi ham quvonchliki, ko‘pincha Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari, shoh va shahzodalar emas, balki kam bag‘al, beva-bechoralarning o‘g‘il-qizi, cho‘pon yoki askar bo‘ladi. Ular o‘zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradilar.[2;51]

Josef Yakobs nomi bevosita ingliz xalq ertaklari bilan chambarchas bog‘liq. Buning sababi shundaki, Josef nemis va fransuz ertaklari ommalashib borayotgan bir vaqtda, ingliz xalqining milliy ertaklari bor ekanligini isbotlash maqsadida ish olib borgan birinchi antropolog bo‘lgan. Kelt ertaklari bilan Yakobs keltlar urf-odatlarini saqlab qolishga yordam bermoqchi bo‘lib, shunday dedi: “Kelt xalq ertaklari hikoyanavislik amaliyoti hali to‘liq davom etayotgan bir vaqtda to‘planib kelingan bo‘lsa-da, ularning hayot davomiyligi allaqachon tugaganligini ko‘rsatadigan barcha

belgilar mavjud. Hali vaqt bor ekan, ularni to‘plash va yozib qo‘yishning sababi shunchalik ko‘p.”[3;11] Kelt ertaklari uchun ertaklarni to‘plaganida, Yakobs hikoyalarni oddiy ingliz tilida qayta hikoya qilishga urinmadi, aksincha, ularning asl tilini iloji boricha saqlab qolishga harakat qildi. Buning sabablaridan biri, uning ta’kidlashicha, o‘quvchi bilmagan bir nechta so‘zlar hikoyaga rang qo‘shishi va uni yaxshilashi mumkin. Kelt ertaklarida kelt xalqining 26 ta ertaklari mavjud bo‘lib, ularda tabiiy va sehrli hikoyalar mavjud. 1894-yilda ikkinchi jild “Ko‘proq Kelt ertaklari” yetib keldi. “Hind ertaklari”, Josef Yakobsning Hindistondan kelgan birinchi folklor kitobi bo‘lib, 1910-yilda nashr etilgan.

Josef ingliz ertaklarining butun yevropaga yoyilmaganligining sababi sifatida o‘sha davr ingliz jamiyatidagi turli sinf vakillari, ayniqsa, yuqori va quyi qatlam o‘rtasidagi bo‘shliqni, notenglikni ko‘rsatadi. Ayrim ertaklar Molyer tamoyilidan foydalanilgan, ya’ni Amerika va avstraliyadagi ingliz immigrant avlodlari orasidan ham yozib olingan. “Ingliz ertaklari” to‘plami “cante-fable” turidagi janr bo‘lib, nasr va tasviriy san’at na’munalarining aralashmasi hisoblanadi. Muallif adabiy ingliz tilidan foydalanar ekan, oddiy xalq og‘zidan eshitgan shevaga hos so‘zlarni o‘zgartirganligi haqida shunday deydi: “Bolalar va ba’zan kattalar ham shevaga xos ertaklarni o‘qimaydilar. Men ham XVIII asr kitoblaridagi mavjud bo‘lgan hikoyalardagi frazeologiyani qisqartirishga va faqat adabiy ingliz uslubida qayta yozishga majbur bo‘ldim. Ertaklarni ularga mos so‘zlashuv-romantik ohangda talqin qilish borasida muvaffaqiyatga erisha olishimga shubham bo‘lsada, bu vazifani uddalashim kerak edi. Aks holda, mening asosiy maqsadim bo‘lgan ingliz bolalari o‘z milliy ertak kitoblarini mutolaa qilishiga erisholmagan bo‘lardim.”

Ertaklarning rivojlanish tarixiga nazar solar ekanmiz, adabiy ertaklar haqida ma’lumot berishimiz joiz. Bunday turdagi ertak voqealari muallif tomonidan to‘liq yaratiladi yoki ertakning asl matniga salmoqli o‘zgartirishlar kiritiladi. Shunday adiblardan biri Sharl Pero bo‘lib, u fransuz xalqi uchun badiiy ertak asoschisi hisoblanadi. Muallifdan o‘ndan ortiq ertaklar meros bo‘lib qolgan.

Ertakda aqllilik, bilimdonlik, topag‘onlik bosh masala qilib qo‘yiladi. Boshqa asarlarda bo‘lgani kabi Sharl Pero ertaklarining birida folklor an’analariga yana bir bor sodiq qoladi. Ertak qahramoni tegirmonchining kenja o‘gli Karabas fahm-farosat, aql bilan ish ko‘rib, o‘z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo‘ladi. Sharl Peroning barcha personajlari pishiq-puxtaliklari bilan ajralib turadilar. Ularning ko‘pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e’zozlaydilar. Zolushka ertagini olib ko‘raylik. Uni o‘gay ona-yu, uning qizi xush ko‘rmaydilar, xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani chin dildan yaxshi ko‘rishadi. Uni o‘z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydilar. Zolushka juda chiroyli, odobli, shirinso‘z, kamtarin, odamlarga, jonivorlar-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlarini, mehnat, halollik va poklik bilan hayotda o‘z o‘rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo‘lishi ertak tinglovchisida yaxshi taassurot qoldiradi.

Dunyoga mashxur ertakchilardan biri Xans Kristian Andersen 1805-yilda Odens shahrida dunyoga keldi. Bolaning otasi kavushdo‘z, onasi esa kir yuvuvchi bo‘lib ishlar edi. Shuning uchun Xans kambag‘allar maktabiga o‘qishga kiradi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko‘chadi. Bolaning yashash sharoiti va o‘qishi bu yerda bir muncha yaxshilanadi. Bo‘lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o‘qishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta‘lim oladi. 1828-yilda esa Kopengagen universitetiga o‘qishga kiradi.[4;54]

Andersen juda ko‘p mamlakatlarni kechib chiqadi. Fransiya, Shvesariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarda bo‘ladi, sayohat qiladi. Andersenning ijodi 20-yillarning boshlaridan boshlanadi. U dastlab lirik she‘rlar, roman, drama, yo‘l ocherklari, biografik etyudlar yaratadi.

Andersen ertaklarining ko‘pgina bosh qahramoni shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o‘zlarining samarali mehnatlari, aqli-idroklari, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo‘ladilar. Uning “Qo‘ng‘iroqli girdob”, “Kumush tanga”, “Kolbasa sixidan sho‘rva”, “Go‘ng-qo‘ng‘iz” va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi.

1. A companion to the fairy tale. By Hilda Ellis Davidson, Anna Chaudhri. Boydell & Brewer 2006. p. 39.
2. March-Russell, Paul. *The Short Story : An Introduction*, Edinburgh University Press, 2009. ProQuest Ebook Central, <http://ebookcentral.proquest.com/lib/gmulebooks/detail.action?docID=434307>.
3. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. J.Jacobs., J.D.Batten. English Fairy Tales. New York, Harvard college library, 1849.